

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Xalikov	
Ta'lrim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati	211
A.A.Mirzayev	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari	217
S.A.Azamova	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari.....	223
M.I.Yusupova	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
M.M.Aralov	
OTM talabalarining grafik tayyorgarliklagini rivojlantirish vositasi sifatida	235
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lum va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili	124
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	241
J.X.Boysunov	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
B.I.Beshimov	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili.....	250
Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova	
Umumiy o'rta ta'lum maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monotoringi	255
M.X.Raxmonova, M.O.Karimova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbli va mohiyati....	260
N.S.G'aurova	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
G.M.Kamalova	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе	266
R.M.Ubaydullayev	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash	270
A.K.Nafasov	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida	274
F.A.Ikramov	
Mustaqil ta'lum faoliyati asosida talabalarning huquqiy ta'lmini tashkil etishning pedagogik omillari	277
D.T.Tursunova	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari	281
D.D.Boymirzaeva	
O'zbekistonda oliy ta'lum muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili	286
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda OTMlar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari	292
S.S.Qozaqova	
Hikoya tuzishga o'rgatish mактабгача yoshdagи bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	298
F.A.Askarov	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lum samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
D.Z.Isaboyeva	
Boshlang'ich ta'lum o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi)	308
M.I.Ne'matov	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish	311

**BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA O'ZBEK MUSIQASI TARIXIGA DOIR
BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ ПО
ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE
OF UZBEK MUSIC HISTORY IN FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS**

Mirzaaxmedova Yulduz Jamshid qizi¹

¹Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga doir ta'limiy-tarbiyaviy jarayoni takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini tadqiq etish jarayoni bilan bog'liq masalalar ilmiy tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье научно анализируются вопросы, связанные с процессом исследования социально-педагогической необходимости совершенствования образовательного процесса для формирования ценностного отношения учащихся к национальному музыкальному наследию будущих учителей музыкального образования.

Abstract

In this article, the issues related to the process of researching the socio-pedagogical necessity of improving the educational process for the development of the axiological attitude of students to the national musical heritage of future music education teachers are scientifically analyzed.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, aksiologik munosabat, ta'limiy-tarbiyaviy jarayon, ijtimoiy-pedagogik zarurat, tadqiqot, milliy musiqiy meros, sifatlari ta'lim.

Ключевые слова: музыкальное образование, аксиологический подход, образовательный процесс, социально-педагогическая потребность, исследование, национальное музыкальное наследие, качественное образование.

Key words: music education, axiological approach, educational process, socio-pedagogical need, research, national musical heritage, quality education.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda milliy musiqiy merosni asrashga doir ta'limiy-tarbiyaviy jarayonini isloq qilish, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlashga qaratilgan innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rghanish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, shuningdek, musiqa san'atini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, milliy musiqiy merosni asrashga doir ta'limiy-tarbiyaviy jarayonini ham takomillashtirish, unga yangicha yondashuvlarni olib kirish, xorij tajribasini o'rghanishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik ishlari ham olib borilmoqda. Bu orqali mamlakatimizda ma'nnaviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yaratiladi. Zero, "o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'nnaviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash" ham bu boradagi ishlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunday ekan, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini o'quvchilarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarblik kasb etadi [1].

Hozirgi vaqtida aksiologik yondashuvga qiziqish ijtimoiy-madaniy muhitdagi o'zgarishlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liqlikda yangi qadriyatlarni izlash aynan ijtimoiy beqarorlik mavjudligi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. V.P.Zinchenko XX asr umuminsoniy qadriyatlarning eng yuqori darajada qadrsizlanish davri deb aytish mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Ana shu sababli yangi ming yillikda ilmiy jamoatchilik insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan qadriyatlarni aniqlash, tartibga solish va tizimlashtirishga faol harakat qilmoqda [2]. Bu jarayon ta'limga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni ta'limda akseologik yondashuvdan

foydalanim asoisda fanga, ilmiy yondashuvlarga va yoki ilmiy jarayonga qadr tuyg'usi bilan qarash va unga ergashish ehtiyojlarini yuzaga keltirmoqda.

Pedagogik jarayonda ma'lumi bir muammoga alohida e'tibor qaratish, ma'lum bir bilim yoki ko'nikmani shakllantirishga qadriyatli munosabatni yuzaga keltirishda aksiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqe, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning meyor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga umumiy bilish ilmi bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, oliy asab sistemasining fiziologiyasi, hissiyot organlari va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi. Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishda musiqiy merosni asrashga doir aksiologik faoliyatni yo'nga qo'yishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda har bir xalq oldida qadriyatlarni asrab-avaylash, ularga yangicha munosabatni shakllantirish va bu asosida ularning yashovchanligini shakllantirish kerakligi kelib chiqmoqda. Shu ma'noda musiqiy meros ham xalqning milliy qadriyati sifatida aksiologik munosabatga va bunday yondashuv asosida shakllangan yangicha munosabatga loyiq. Buni amalga oshirishning eng samarali yo'li ham ta'limga aksiologik yondashuvni olib kirish, musiqa ta'limi orqali milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish hisoblanadi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarni rivojlantirish orqali o'quvchilarda milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi. O'quvchilarda o'zbek milliy musiqiy merosiga aksiologik munosabatni rivojlantirish orqali jamiyatda musiqiy madaniyatni shakllantirish va aksiologik mas'uliyatni rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Pedagogik aksiologiyaga doir adabiyotlarda "qadriyati ustanovka" tushunchasi ham uchraydi. Garchi ko'pchilik mualliflar "qadriyati yo'nalanlik" va "qadriyati ustanovka" tushunchalarini sinonim sifatida qo'llasha ham, birinchilardan bo'lib M.Rokich ular orasidagi farqni alohida ajratib ko'satgan. Amerikalik olimning fikricha, ustanovkani ma'lum bir obyekt (konkret yoki abstrakt, shaxsiy yoki ijtimoiy)ga yoki vaziyatga nisbatan subyekt munosabatida aks etuvchi uzoq vaqt davomida shakllangan bir qancha ishonch, e'tiqodlar majmui deb qarash mumkin [3]. Demak, yo'nalanlik shaxsning jamiyatdagi me'yorlar bilan inson ehtiyojlarini uyg'unlashuvi aks etsa, qadriyati ustanovkada shaxsning amaliy faoliyatda mazkur munosabatlari tizimini ro'yogba chiqarishga tayyorligi aks etadi.

Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishni talab etuvchi ijtimoiy va shaxsiy omillarni integratsiyalash tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylashda ijtimoliy va shaxsiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ular o'rtaсидаги yaxlitlikni ta'minlashni talab etadi;

Ijtimoiy faollik tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarda milliy musiqiy merosni asrab-avaylash uchun muhim va zarur ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda, shu jumladan, san'at olamida sodir bo'layotgan obyektiv o'zgarishlar bilan bog'liqlik musiqa ia'limi talablarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishni talab etadi.

Milliy musiqiy merosni asrab-avaylashga hizmat qiluvchi akciologik ong o'z navbatida akciologik hissiyot, akciologik idpok, qadplash tuyg'uci, akciologik kechinmalap, qadpiyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xuloca va tafakkup bilan uzviy bog'liqdip. Kimdadir akciologik idrok va qadrlash tuyg'usi boshqalardan ko'ra kuchliroq namoyon bo'lishi, uning qalbida qadrlash tuyg'usi bilan bog'liq hissiyot ko'proq "g'alayon" qilishi mumkin. Bunday kishida muayyan qadriyatni qadrlash bilan bog'liq mas'uliyat va unga asoslangan faoliyat ham boshqalarga qaraganda yaqqolroq ko'zga tashlanib turishi tabiiy.

ADABIYOTLAR TAHЛИI VA METODOLOGIYA

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarni o'rganilganlik darajasini uch qismga – O'zbekistonda, MDHda va G'arb mamlakatlarida o'rganilishi kabi uch qismga bo'lish mumkin.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning ilmiy-amaliy vazifalari S.Bulatov, B.Azimov, S.Annamuratova, O.Vasilchenko, Sh.Janaydarov, F.Jo'rayev, D.Kamolova, H.Nurmatov, F.Xalilov, A.Hasanov kabi olimlar

ILMIY AXBOROT

tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek mumtoz musiqiy merozi, folklor qo'shiqlarining tarixi, nazariyasi, xususiyatlarini R.Abdullayev, S.Begmatov, T.Vizgo, O.Ibrohimov, F.Karomatov, I.Rajabov, T.G'ofurbekov, B.Qodirov, M.Qodirov, E.Fayzullayev larning ishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan E.Abdulin, YE.Bodina, O.Bochkareva, E.Burzina, N.Ivanov, L.Koval, V.Rajnikov, A.Rapatskaya, YE.Fedorovich, S.Shabayevlarning tadqiqotlarida milliy musiqiy merozi asrash, musiqiy madaniyatni shakllantirish, millat va elatlarning turli ko'rinish va mazmundagi musiqiy meroziiga aksiologik munosabatni shakllantirish masalalri tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan jahon xalqlarining milliy musiqiy merozi va uni asrashga doir ilmiy-tashkiliy loyihalarni rivojlantirish masalalari D.Karomatli, T.Levin, Y.Elsner va A.Yunglar kabi olimlar tomonidan o'rganilgan [4].

NATIJALAR

Har qanday jamiyatda ham yosh avlod tarbiysi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlod tarbiyasiga bog'liq. Ma'lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma'nnaviy, aqliy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta'sir etib boruvchi uzlusiz jarayon. Endilikdagi asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta'lif va tarbiya berish, ularning kuch va sadoqatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko'pgina davlatlari qatori yurtimizda olib borayotgan odilona siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar ko'lamida payqash qiyin emas.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixida doir bilimlarni rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyatini quyidagicha asoslash mumkin:

Birinchidan, jamiyatni rivojlanib borishi ijtimoiy-ma'nnaviy sohalarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonda o'quvchilarda milliy musiqiy merozi asrashga doir bilimlarni rivojlantirishni ni tadqiq etish, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini mazkur jarayonga tayyorlash, jamiyatda erishilgan yutuqlar asosida mavzuni ilmiy-nazariy o'rganish hamda umumlashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, bugungi kunda yosh avlod dunyoqarashida vatanga bo'lgan muhabbat, istiqbolga ishonch tuyg'ularini shakllantirish muhim masala qilib belgilangan. Bunda ta'lif bilan tarbiyaning uzviyigini ta'minlash dolzarb masalalar sirasiga kiradi. "Ta'lif to'g'risida"gi yangi Qonunda mohiyati jismonan va aqlan sog'lom, boy dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga doir vazifalar alohida ko'rsatib o'tilganligi o'quvchilarda milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish masalalarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Uchinchidan, bozor munosabatlari sharoitida jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning yaratilishi, uning yoshlar ongida aks etishi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'nnaviy qarashlarning milliylik ruhida shakllantirishga ham olib kelmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, yangi taraqqiyot bosqichiga mos keladigan, ma'nnaviy yuksak avlodni voyaga yetkazishni ko'zda tutadi.

To'rtinchidan, o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash ruhida tarbiyalash jarayonida uning milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatini shakllantirish o'z-o'zidan ro'y beradigan jarayon emas. Ayniqsa, globallahuv sharoitida milliy qadriyatlarni qadrsizlashga urinuvchi, yangicha ommaviy qadriyatlarni shakllantirishga harkatlar va g'oyaviy ta'sir vositalarining quadratli bo'lib borishi sharoitida bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixida doir bilimlarni rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlarini tahlil qilishdan oldin milliy musiqiy merozi, uning shakllanishi va bugungi kundagi maqomini tadqiq etish maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Qadimiy va boy tajribaga ega o'zbek milliy musiqi merozi yosh avlodga ta'lif va tarbiya berishda asosiy vosita hisoblanadi. Qadimgi davrlarda musiqa san'atini o'ziga kasb qilmoqchi bo'lgan yoshlar usta san'atkorga shogird tushib, yillar mobaynida uning uyida yashab, nafaqat ustozning san'at bobidagi mahoratini, balki uning barcha yaxshi fazilatlarini o'ziga singdirib olgan. Vaqt o'tishi bilan ustoz-shogird an'anasi mahorat maktablarining vujudga kelishida poydevor vazifasini o'tagan. Bunday maktablarning samarali faoliyati mazmunida shaxsni jamiyatda kamol topishi va o'z o'rnnini belgilashida musiqa haqiqiy ma'nodagi kasbiy tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topdi.

Pedagogik jarayonda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida musiqa nazariyasiga oid bilimlar va turli yondashuvlarni o'rgatish orqali musiqaning forig'lash, huzurbaxshlik hamda tarbiyaviylik xususiyatlarni ham singdirish juda muhim masalalardan biridir. Jumladan, musiqaning go'zalligi kuy, ohang va kompozitsiyaning uyg'unligida namoyon bo'lishi, shuning uchun yaxshi musiqa qalbni poklashi, kayfiyatni ko'tarishi, insonni g'am-anduhdan, tushkunlik kayfiyatlaridan xalos etishi, nuqs va g'uborlardan forig'lashini yangicha pedagogik metodika asosida tushuntirib berish kerak bo'ladi. Buning uchun esa, musiqa ta'limida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish va bu orqali musiqiy asarga va faoliyatga estetik did va fahm bilan qarash, munosabatda bo'lish, ta'limni tashkil etish kerak bo'ladi. Chunki haqiqiy musiqa ta'limi yuksak estetik did bilan ijro etilgandagina g'uborlardan forig'lash funksiyasini amalga oshirish mumkin bo'ladi.

MUHOKAMA

Musiqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar texnologiyalarni yaxshi tushunadilar. Ammo ko'pchilik talabalar kerakli ma'lumotni topa olmaydilar. Chunki bugungi oliy pedagogik ta'limda musiqa ta'limining axborot-resurs zahirasi juda boy emas, shuningdek, o'rganuvchilar mustaqil o'rganishi va darsdan tashqari mashg'ulotlarni davom ettirishi to'g'ri va samarali tashkil etilmagan. Shu bois bugungi musiqa ta'limida ta'lim oluvchilar pedagogning bir dars davomida o'rgatganlariga qaram va mana shunday samarasiz dars mashg'ulotlari ichida qolib ketmoqda. Shu bilan birga, aksariyat talabalar elektron kutubxonalarda ishlashni kerakli ma'lumotlarni chuqur tahlil qilishni, mavzu bo'yicha materiallar bankini tuzishni (kurs ishlari, maqolalar, doklad va referatlar), parametrlar (matn intervalini, shriftini) belgilashni bilmaydi. Ularda mustaqil ta'lim olish, musiqiy bilimini oshirish va o'rganganlarini mustahkamlash imkonini yaratish, axborot resurslarni ham kengaytirish kerak.

Olim U.Yuldashevning fikricha, "bo'lajak musiqa ta'limi tizimi mutaxassisini shakllantirish, avvalambor talaba shaxsini loyihalashdan boshlash kerak. Buning uchun esa, avvalo, unda kelajakda pedagogik jarayon subyekti bo'lishiga imkon beradigan fazilat va hususiyatlarni loyihalash lozimdir". Bu uning kasbiy kompetentligini belgilovchi professional bilim, ko'nikma va malakalari; intellektual-o'rganuvchanlik qobiliyati; aqliy mehnat qila olishi; kreativlilik qobiliyatları va qadriy-rag'bat sohasi; xamkorlik, jamoaviy-tashkiliy, birgalikda, hamnafas faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga urinish bilan birga ularda badiiy-estetik bilim va ko'nikmalalarni shakllantirish, ularda estetik nafosat va didni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu komponentlarning yaxlitligi va rivojlanganligi mutaxassisning professional mobillik darajasini belgilaydi. Bitiruvchining kelajakda kim bo'lishi-ijrochimi yoki pedagogmi, qaysi daraja tayyorgarligi bor va necha yosh kategoriylar bilan ishlaydi - bularning hammasi loyihalashtirish paytida juda muhim. Natijada, talabaning hayotdagи maqsadi va keyingi faoliyat rejalarini aniqlash uning kasbiy tayyorgarligiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, aksariyat talabalarning musiqa cholg'u asboblarida ijro texnikasining yetishmasligi va ta'lim sifatining yaxshi emasligi, talabalarda ham musiqa ilmini egallahga bo'lgan qiziqishning yuqori emasligi natijalarni yuqori bo'lmeligiga ta'sir ko'rsatmoqda. «Bu hol "Cholg'u ijrochiligi" fanining guruh bo'lib o'tkazilishi va o'quv rejada berilgan o'quv soati xافتада guruh uchun 2 soatni tashkil etishi bilan ham bog'liq.

Talabalarning boshqa, barchasi muhim fanlarda berilgan vazifalarini bajarishlari ham kerakligini e'tiborga olsak, ijro mahoratini oshirish uchun talaba mustaqil ko'p shug'ullanishi kerak». Mana shunday muammolarni bartaraf etish orqali musiqa ta'limini isloh qilish va rivojlantirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga musiqa ta'limi bo'lajak o'qituvchilarining baddiy-estetik didi va dunyoqarashini o'stirish mumkin. Demak, bo'lajak musiqa o'qituvchisi orqali o'quvchilarda yuksak fikr va tuyg'ular, nafosat, dil quvonchlari, armon va orzular hosil qilishi, ularning ijodkorlik qobiliyatini oshiririshi mumkin [5]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, san'at garchand fandan ko'ra o'ziga xos usulda ko'zda tutgan maqsadi ham bir qadar boshqacha bo'lsa-da, ilm-fan bilan doimo uzviy bog'liq. Chunki, muayyan san'at asari ilmiy o'rganilayotgan ijtimoiy muammolarni ham qamrab oladi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon musiqiy madaniyat va o'zbek milliy musiqasiga qadriyatli munosabatni shakllantirishga qaratilmog'i lozim.

Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir mashg'ulotlarda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar

doirasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omildir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish – musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir. Bu jarayonda aksiologik yondashuvning samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki biror bir merosni asrashga doir bilimlarni shakllantirishda qadriyatli munosabatga asoslangan aksiologik yondauv muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa shuki, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq etishda quyidagi asosiy va muhim faktorlar etib belgilanishini zarur deb topildi:

– Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish uchun avalo milliy musiqiy merosga aksiologik ehtiyojni shakllantirish, ularda milliy ehtiyojni anglashlariga imkon berish, ta'sir ko'rsatish va bu jarayonga qaratilgan qadriyatli pedagogik faoliyatni takomillashtirish maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

– Hozirgi kunda musiqa darsini maxsus texnika vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Musiqa darsi o'tadigan sinfni talab darajasida jihozlash o'quvchilarda ijodiy muhitni va zarur musiqiy-hissiy kayfiyatni hozirlaydi. Darsda turli cholg'u asboblari, texnik va kurgazma vositalar zarur. Ularning sifati, o'z vaqtida tayyor bo'lishi va qo'llanishi ko'p hollarda musiqa darsining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

– Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishda debat-klublar; "Munozara arg'imchoqlari" (musiqiy tafakkurni oshirishga doir); fikrlarni muhokama qilish; intellektual o'yinlar ("Maqomchi yigitlar va qizlar", "Musiqa bilimdonlari turniri", "Biz – milliy musiqa tashuvchilarimiz"); rolli o'yinlar; sog'lom turmush tarziga oid turkum videolektoriylar; o'yin-treninglar; tok-shou; konsert-aksiya ("Maqom festivali", "Xorij etradasi") kabi faol va interfaol shakllari, vositalari ishlab chiqish samarali hisoblanadi.

– Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishga musiqa ilmining umumnazariy va amaliy jihatdan shakllanishida ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlarning ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy meroslari hamda musiqa, musiqa ta'limi fani rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bilishi va ularidan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalananish malakasiga ega bo'lishi kerak bo'ladi.

– Pedagogik jarayonda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida musiqa nazariyasiga oid bilimlar va turli yondashuvlarni o'rgatish orqali musiqaning forig'lash, huzurbaxshlik hamda tarbiyaviylik xususiyatlarini ham singdirish mumkin bo'ladi.

– Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining fiziologik va psixologik xususiyatlari darslarda mavzularni bayon etish, kerakli ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri holda hikoya, tushuntirish, ko'rsatib berish kabi an'anaviy shakllaridan farqli o'laroq xilma-xil tarzda, darslarni qiziqarliroq bo'lishi uchun xizmat qiluvchi shakllaridan unumli foydalangan holda tashkil etilishini taqazo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova D.A. "Musiqa madaniyati" fani o'qituvchisining zamonaviy pedagogik mahorati. // Zamonaviy ta'lim. 2018. №5. –B. 7.
2. Maxmudova C. Innovatsion yondashuv asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining musiqiy madaniyatini shakllantirish texnologiyalari. Zamonaviy ta'lim jurnalı. 2018. №8. –B. 63.
3. Panjiyev Q, Azizov R. Estrada qo'shiqchiligi yoshlarni tarbiyalashning ma'naviy vositasi sifatida. Zamonaviy ta'lim. 2018. №7. –B. 12.
4. Yuldashev.U.Y. Musiqa o'qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasi. //Zamonaviy ta'lim. 2019. № 9(82). –B. 51.
5. Yuldashev U.Y. Milliy maqom asarlari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent.: TDPU. 2021. –B. 10.